

XIII. DEMOGRAFIYA

Doimiy aholi soni

Qoraqalpog'iston Respublikasining doimiy aholisi soni 2022-yil 1-iyul holatiga 1962,4 ming kishini tashkil etib, 2022-yil boshidan 13,9 ming kishiga ya'nii 0,7 % ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 961,3 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 49,0 %), qishloq aholisi soni 1001,1 ming kishini (51,0 %) tashkil etdi.

E'tibor bering: 2022 yil yanvar-iyun oylarida

- Aholi soni **13,9 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **18,8 ming nafarni** tashkil etdi.
- Vafot etganlar soni **4,4 ming nafarni** tashkil etdi.
- Nikohlar soni **7,3 ming nafarni** tashkil etdi.
- Ajrimlar soni **1,1 ming nafarni** tashkil etdi

2022-yilning Yanvar-iyun oylarida

Yil boshida
doimiy aholi soni
1 948 488 kishi
(2022 yil 1 yanvar holatiga)

Tirik
tug'ilganlar
soni
18778
bola

Vafot
etganlar soni
4386
kishi

Tabiiy o'sish
14392
kishi

Ko'chib
kelganlar
4316
kishi

Ko'chib
ketganlar
soni
4820
kishi

Mexanik o'sish
(kamayish)
-504
kishi

Doimiy aholi soni
1 962 376 kishi
(2022-yilning 1-iyul holatiga)

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha doimiy aholi soni¹⁾
(2022-yilning 1- iyul holatiga, ming kishi)

	<i>Jami aholi</i>	<i>shu jumladan:</i>	
		<i>shahar aholisi</i>	<i>qishloq aholisi</i>
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	1 962,4	961,3	1 001,1
Nukus sh.	332,1	332,1	-
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	206,4	53,5	152,9
Beruniy	199,0	70,3	128,7
Bo‘zatov	21,9	5,5	16,4
Qonliko‘l	52,7	13,2	39,5
Qorao‘zak	53,8	16,3	37,5
Kegeyli	73,9	29,9	44,0
Qo‘ng‘irot	133,7	84,5	49,2
Mo‘ynoq	33,3	14,7	18,6
Nukus	52,3	10,6	41,7
Taxiatosh	75,9	54,4	21,5
Taxtako‘pir	40,7	17,1	23,6
To‘rtko‘l	222,6	84,3	138,3
Xo‘jayli	126,5	80,7	45,8
Chimboy	114,4	58,6	55,8
Shumanay	57,3	15,2	42,1
Ellikqal‘a	165,9	20,4	145,5

¹⁾ dastlabki ma'lumot

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha doimiy aholi soni
(1 iyul holatiga ming kishi)**

	2021 y.	2022 y.	O‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati % da
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	1 932,1	1 962,4	101,6
Nukus sh.	326,0	332,1	101,9
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	202,5	206,4	101,9
Beruniy	195,5	199,0	101,8
Bo‘zatov	21,8	21,9	100,5
Qorao‘zak	53,3	53,8	100,9
Kegeyli	73,3	73,9	100,8
Qo‘ng‘irot	132,0	133,7	101,3
Qonliko‘l	51,9	52,7	101,5
Mo‘ynoq	32,6	33,3	102,1
Nukus	51,3	52,3	101,9
Taxiatosh	74,9	75,9	101,3
Taxtako‘pir	40,5	40,7	100,5
To‘rtko‘l	218,9	222,6	101,7
Xo‘jayli	124,6	126,5	101,5
Chimboy	113,4	114,4	100,9
Shumanay	56,7	57,3	101,1
Ellikqal‘a	162,9	165,9	101,8


Yanvar-iyun oylarida aholining tabiiy harakati

	<i>kishi</i>			<i>har 1000 kishiga nisbatan promille</i>	
	<i>2021 y.</i>	<i>2022 y.¹⁾</i>	<i>o'sish, kamayish</i>	<i>2021 y.</i>	<i>2022 y.¹⁾</i>
Tug'ilganlar	16 790	18 778	1 988	17,6	19,4
O'lganlar	4 193	4 386	193	4,4	4,5
Tabiiy o'sish	12597	14392	1795	13,2	14,9
Nikohlar	7 845	7 314	-531	8,2	7,5
Ajralishlar	694	1056	362	0,7	1,1

Tug'ilish darajasi. 2022 yilning yanvar-iyun oylarida tug'ilganlar soni 18 778 kishini tashkil qildi va 2021 yilning shu davriga (16 790 kishi) nisbatan 1 988 kishiga yoki 11,8 foizga ko'paydi. Tug'ilish koeffitsienti mos ravishda 19,4 promilleni tashkil qildi va 2021 yilning shu davriga (17,6 promille) nisbatan 1,8 promillega ko'paydi.

Aholining tabiiy harakati koeffitsientlari

(yanvar-iyun oylarida) (1000 aholi soniga nisbatan promille)



Tug'ilish darajasining ko'payishi Respublikaning deyarli barcha hududlarida qayd etildi. Bu ko'rsatkichning yuqori darjası Nukus shahrida 16,6 dan 19,6 promillega, Beruniyda 16,9 dan 21,4 promillega Xo'jaylida 17,2 dan 21,3 promillega, va Amudaryoda 19,8 dan 21,8 promillega ko'payishi kuzatilgan.


¹⁾ dastlabki ma'lumot

Tug'ilish. 2022-yilning yanvar-iyun oylarida 18,8 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va keyinchalik tug'ilganlarga faqat tiriktug'ilganlar inobatga olinan) mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsienti 19,4 promilleni tashkil etdi hamda 2021 yilning mos davriga nisbatan 1,8 promillega ko'payganligi (2021 yilning yanvar-iyun oylarida 17,6 promille bo'lgan) kuzatildi.

Ma'lumot uchun


Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bolsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yи 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

Tumanlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsienti (2022 yilning yanvar-iyun oylarida)




O'lim darajasi. 2022 yilning yanvar-iyun oylarida o'lganlar soni 4386 kishini tashkil qildi va 2021 yilning shu davriga (4193 kishi) nisbatan 193 kishiga yoki 4,6 foizga ko'paydi. Mos ravishda o'lim koeffitsienti 4,5 promilleni tashkil qildi (2021 yilning yanvar-iyun oylarida 4,4 promille).

**2022 yilning yanvar-iyun oylarida asosiy o'lim sabablari bo'yicha
vafot etganlarning taqsimlanishi**
(jami vafot etganlarga nisbatan foiz hisobida)



O'lim koeffitsientlari




O'lim ko'rsatkichlarining yuqori darjasini Nukus shahrida (4,2 dan 4,7 promillega), Kegeylida (4,8 dan 5,9 promillega), Beruniyda (4,4 dan 5,0 promillega) va Xo'jaylida (4,5 dan 4,9 promillega) ko'payishi kuzatilgan.

Nikoh. 2022 yilning yanvariyun oylarida FHDYo organlari tomonidan 7,3 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 7,5 promilleni tashkil etdi.




Tumanlar kesimida tuzilgan nikohlar soni va koeffitsienti
(2022 yilning yanvar-iyun oylari holatiga 1000 aholiga nisbatan promille)



Nikohdan ajralishlar. 2022 yilning yanvar-iyun oylarida FHDYo organlari tomonidan 1,1 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsienti 1,1 promilleni tashkil etdi.

**Tumanlar kesimida nikohdan ajralishlar soni va koeffitsienti
(2022 yilning yanvar-iyun oylari holatiga)**



Nikohlar va ajralishlar. 2022 yilning yanvar-iyun oylari FHDYo organlarida 7314 ta nikohlar va 1056 ta ajralishlar ro'yxatga olingan. Ming aholiga nisbatan 7,5 ta nikoh (2021 yilning tegishli davrida 8,2 ta) va 1,1 ta ajralishlar (2021 yilning tegishli davrida 0,7 ta) to'g'ri kelgan.

Tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni

(yanvar-iyun oylarida, birlik)

	<i>Tuzilgan nikohlar</i>		<i>Nikohdan ajralishlar</i>	
	<i>2021 y.</i>	<i>2022 y.²⁾</i>	<i>2021 y.</i>	<i>2022 y.²⁾</i>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	7845	7314	694	1056
Nukus sh.	1450	1213	133	229
<i>tumanlar:</i>				
Amudaryo	882	838	73	97
Beruniy	721	837	44	97
Bo'zatov	97	74	5	8
Qonliko'l	221	145	12	23
Qorao'zak	176	182	13	32
Kegeyli	339	264	27	33
Qo'ng'iroq	597	567	64	82
Mo'ynoq	111	94	7	17
Nukus	262	241	20	36
Taxiatosh	267	278	34	43
Taxtako'pir	138	121	9	31
To'rtko'l	795	730	78	82
Xo'jayli	499	489	63	75
Chimboy	443	408	41	67
Shumanay	197	167	27	22
Ellikqal'a	650	666	44	82

Migratsiya¹(Ichki va tashqi). Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2022 yilning yanvar-iyun oylarida Respublika bo'yicha ko'chib kelganlar soni 4316 kishini, shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa 4820 kishini tashkil qilgan.

Aholi migratsiyasi (kishি)

	2021 yilning yanvar-iyun oylarida	2022 yilning yanvar-iyun oylarida
Ko'chib kelganlar	7254	4316
Ko'chib ketganlar	11492	4820
Migratsiya saldosi	-4238	-504

2022 yilning yanvar-iyun oylarida migratsiya qoldig'i minus 504 kishiga (2021 yilning shu davrida –minus 4238 kishi) teng bo'ldi. Eng katta minus qoldiqlar Chimboy (minus 287), Kegeyli (minus 122) va Amudaryo (minus 181) tumanlarida kuzatilgan.



¹shahar va tumanlar hamda hududlar aro ichki migratsiyani qo'shgan holda
²⁾dastlabki ma'lumot



Poytaxtdagi demografik xolat



Qoraqalpog'iston Respublikasi poytaxti Nukus shahrining doimiy aholisi soni 2022 yil 1 iyul holatiga 332,1 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 3,1 ming kishi ga yoki 0,9 % ga o'sgan.

Nukus shahri aholisi tabiiy harakati

(1000 aholiga nisbatan promille)



2022 yilning yanvar-iyun oylarida 3,2 ming bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, mos ravishda tug'ilish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan 19,6 promilleni tashkil etdi (2021 yilning mos davrida 16,6 promille bo'lgan).

FXYDYo organlarida 2022 yilning yanvar-iyun oylarida 1213 ta nikoh va 229 ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan.

Shuningdek, 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 7,4 promilleni tashkil qilib, 2021 yilning mos davriga nisbatan 1,6 promillega kamaygan (2021 yilning mos davrida 9,0 promille bo'lgan).

Nikohdan ajralish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan 1,4 promilleni tashkil etib, 2021 yilning mos davriga nisbatan 0,6 promillega ko'paydi. 2021 yilning mos davrida 0,8 promille bo'lgan.

Nukus shahrida tuzilgan nikoh va ajrim

(yanvar-iyun holatiga 1000 aholiga nisbatan promille)

